

**KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA QO‘LLAB QUVVATLASH
BORASIDAGI ISLOHOTLAR**

Avazaliyeva Fotima

Namangan davlat pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti XTA-AU-25 guruh talabasi

Email: fotimaavazaliyeva795@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tillayev Bobomurod

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19454094>

***Annotasiya:** Ushbu maqolada yoshlar orasida tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishning ortib borayotgani, tadbirkorlik faoliyatining jamiyat va iqtisodiyotdagi o‘rni hamda ahamiyati atroflicha yoritilgan. Maqolada tadbirkorlik faoliyatini boshlashda muhim bo‘lgan asosiy bosqichlarga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, jumladan, biznes g‘oyani tanlash va asoslash, bozorni tahlil qilish, puxta biznes-reja tuzish, moliyaviy manbalarni aniqlash hamda faoliyatni kichik ko‘lamdan boshlashning afzalliklari tahlil etilgan.*

Shuningdek, yosh tadbirkorlar uchun davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham keng yoritilgan. Xulosa qismida esa tadbirkorlik yoshlar uchun nafaqat moddiy daromad manbai, balki o‘z salohiyatini namoyon etish, jamiyat rivojiga hissa qo‘shish va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish vositasi ekani alohida ta’kidlangan

***Kalit so‘zlar:** Tadbirkorlik, biznes, islohotlar, tashabbuslar, moliyalashtirish, startap loyihasi, korxonalar.*

***Аннотация:** В данной статье подробно рассматривается растущий интерес молодежи к предпринимательству, а также роль и значение предпринимательской деятельности в обществе и экономике. В статье особое внимание уделяется основным этапам начала предпринимательской деятельности, таким как выбор и обоснование бизнес-идеи, анализ рынка, разработка грамотного бизнес-плана, определение финансовых ресурсов, а также анализ преимуществ начала деятельности с малого масштаба.*

Кроме того, в статье освещаются возможности, льготы и механизмы поддержки, предоставляемые государством молодым предпринимателям. В заключительной части подчеркивается, что предпринимательство для молодежи является не только источником дохода, но и способом самореализации, внесения вклада в развитие общества и реализации инновационных идей.

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

Ключевые слова: *Предпринимательство, бизнес, реформы, инициативы, финансирование, стартап-проект, предприятие .*

Abstract: *This article comprehensively discusses the growing interest in entrepreneurship among young people, as well as the role and significance of entrepreneurial activity in society and the economy. The article places special emphasis on the key stages of starting a business, including selecting and justifying a business idea, analyzing the market, developing a well-structured business plan, identifying financial resources, and examining the advantages of starting on a small scale.*

In addition, the article highlights the opportunities, benefits, and support mechanisms created by the government for young entrepreneurs. In the conclusion, it is emphasized that entrepreneurship is not only a source of financial income for young people, but also a way to express their potential, contribute to society, and implement innovative ideas.

Keywords: *Entrepreneurship, business, reforms, initiatives, financing, startup project, enterprise.*

Xalqimiz hayotida tadbirkorlik azaldan muhim o‘rin tutgan bo‘lib asrlar davomida uning o‘ziga xos an‘analari asrab-avaylangan, bunday fazilatga ega insonlar hamisha qadrlangan .Buni birgina sohibqiron Amir Temur bobomizning “Azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir” degan fikri ham yaqqol tasdiqlaydi. Ta’kidlash joizki, bu borada ota-bobolardan meros an‘analar keyingi besh yil ichida zamonaviy mezonlar asosida asosida jadal rivojlantirilmoqda. Ayni jarayonda yurtimizda tadbirkorlikka keng yo‘l ochilib, bugun o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan, oilasi, el-yurt farovonligi, iqtisodiyotimiz rivoji yo‘lida xizmat qilayotgan hamyurtlarimiz safi tobora ortmoqda [1]. Albatta ushbu yutuqlar ortida Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan farmonlar, tashabbuslarni qo‘llab quvvatlashga qaratilgan loyiha imtiyozlarning o‘rni katta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-avgustdagi Farmoniga muvofiq, Tadbirkorlik kuni munosabati bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan soha vakillarining bir guruhi mukofotlangan edi. Tadbirda davlatimiz rahbari 29 nafar fidoyi va ilg‘or tadbirkorlarga orden va medallarni tantanali topshirdi. Shuningdek, 19-avgustdagi Prezident farmoyishi bilan “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni ta’sis etilgan edi. Tarixiy ahamiyatga ega uchrashuvda davlatimiz rahbari soha vakillarini qo‘llab quvvatlash yuzasidan muhim qaror va strategik yo‘nalishlarni ilgari surdi. Unga ko‘ra, korxonalar toifalarga ajratib, ularni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha alohida yondashuvni belgilashni nazarda tutadi. Bu borada korxonalar 3 turga ajratiladi: 1 milliard so‘mgacha bo‘lgani-mikro biznes; 10 milliard so‘mgacha bo‘lgani - kichik

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

biznes; 100 milliard so‘mgacha bo‘lgani o‘rta biznes toifasiga kiradi. Shuningdek, yillik aylanma mablag‘i 1 milliard so‘mdan oshib, umumiy soliq to‘lash tartibiga o‘tgan korxonalar bir yil davomida foyda solig‘ini ikki barobar kam to‘laydi. Ushbu imtiyoz orqali respublikamizda 370 mingdan ortiq tadbirkorga yengillik yaratishi alohida e’tirof etildi.

Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish va qo‘llab quvvatlash sohasidagi islohotlar 2025 yilga kelib tanda jadallashdi. Xususan, shu yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishdagi ustuvor vazifalar e’lon qilindi. Kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushini 55% ga yetkazish rejalashtirilgan. Bu uchun \$10 milliard ajratiladi, kichik korxonalar uchun imtiyozli kredit olish imkoniyati yaratiladi, tadbirkor ayollar uchun stavkalar pasayadi. 2025-yil 19-mart kuni kichik va o‘rta biznes vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvida “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash - bizning strategik yo‘limiz,” - deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev. Uchrashuv davomida:

xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga yetkazish, 70 milliard dollarlik qo‘shimcha qiymat yaratish. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 54,3 foizni tashkil etadi (2020-yilda 57,5 foiz edi);

mahsulotlarni tashish, sertifikatlashtirish va standartlashtirishni qo‘llab-quvvatlash orqali kichik biznes eksportini 9 dan 12 milliard dollargacha kengaytirish;

suv ta’minoti, kanalizatsiya, yo‘l qurilishi, kommunal xizmat ko‘rsatish, moddiy-texnik ta’minot, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohalarida kichik biznes ulushini 2 – 3 barobar oshirish;

1,5 million doimiy ish o‘rni yaratish va ushbu sohada band aholi ulushini 75 foizga yetkazish;

ishchilar soni 100 dan ortiq bo‘lgan korxonalar hajmini 4000 taga yetkazish;

kichik biznes sohasida 100 ta yangi brend ishlab chiqish;

kichik biznesni jalb etgan holda 200 ta startup loyhasini moliyalashtirish kabi bir qator maqsadlar qo‘yildi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda kompleks dastur ishlab chiqildi. 2025-yilda uni amalga oshirish uchun turli manbalardan 10 milliard dollar ajratish rejalashtirilgan.[2]

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tufayli kichik va o‘rta biznes subyektlari soni sezilarli darajada oshdi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “ikkita ish o‘rnini yaratgan tadbirkorni boshimga ko‘tarishga tayyorman” degan so‘zlarini nechog‘liq amalda bajarilganini so‘nggi islohotlar orqali ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

1. Sharipov Q. Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim kecha, bugun va ertaga. – Toshkent, 2024. – B.92-93.
2. Prezident: Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – strategik yo‘limiz // <https://president.uz/oz/lists/view/7955> [Murojaat qilingan sana: 25.03.2026]
3. Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich, & G‘oporova Shohzoda To‘lqin qizi. (2025). ZAMONAVIY DUNYODA O‘ZBEKISTON VA XALQARO TASHKIOTLAR O‘RTASIDAGI HAMKORLIK JIHATLARI. USA- SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION, 1(2), 20-24. <http://e-conferences.org/index.php/usa/article/view/41>
4. Тиллаев, Б. А. (2016). Быт и культура народов Узбекистана (XVI–первая половина XIX в.). Молодой ученый, (8), 828-831.
5. Yuldashev, J. (2024). DEVELOPING THE AXIOLOGICAL POSITION OF FUTURE HISTORY TEACHERS–AS AN IMPORTANT DIRECTION OF HISTORY EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(50), 33-36.